

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI” FAKULTETI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK: 336.1:336.2(575.1)*

**TUXSANOV ELDOR DILMUROD O‘G‘LI**

**DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI SHAKLLANISHIDA  
SOLIQLARNING ROLI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**70410401- «Davlat moliyasi va xalqaro moliya»**

**mutaxassisligi bo‘yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.b.f.d. (PhD). dots. Bauyetdinov M.J.**


**Toshkent-2023**

**Magistrlik dissertasiya ishi “Moliya” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.**

18 sonli bayonnoma “ 25 ” aprel 2023 y.

Kafedra mudiri: Xudoyqulov. X. X.

(f.i.sh.)

  
\_\_\_\_\_

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Bauyetdinov. M.J.

(f.i.sh.)

  
\_\_\_\_\_

imzo

sana

Magistrant: Tuxsanov. E.D

(f.i.sh.)

  
\_\_\_\_\_

imzo

sana

Dissertasiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida

2023 yil “ 30 ” may

№ MBF-01/27 raqami bilan ro‘yxatga olinadi.

## ANNOTATSIYA

Davlat o'zining funktsiyalarini amalga oshirish uchun ma'lum harajatlarni amalga oshirishi va ularni qoplash uchun soliq va yig'implarni undirilishiga sabab bo'ladi. Soliqlar iqtisodiyotni boshqarish qurollaridan biri bo'lganligi uchun mutaxassislar doimiy ravishda soliqni yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog'i to'g'risida fikr, mulohaza yuritib kelganlar. Shu boisdan ham budget daromadlarida soliqlarning bugungi kundagi rolini o'rganish va uni takomillashtirish dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik.

Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid maxalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uni qoshidagi DSQ sohadagi soliq tizmidagi, xususan respublikadagi soliq tushumlari holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida analiz tahlil usullari yordamida o'rgandik.

Undan tashqari xorijiy mamlakatlar soliq tizmi va ularning bu sohadagi tajribalari bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida mamlakatimiz soliq tizmi va soliq mamurchiligiga ta'siri bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

***Kalit so'zlar:*** Davlat budjeti, daromad, soliqlar, soliq tizmi, soliq mamurchiligi, soliq siyosati, soliq qo'mitasi, soliq yuki, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq obyekt.

## ANNOTATION

The state incurs certain expenses for the implementation of its functions and causes taxes and fees to be collected to cover them. Since taxes are one of the tools of economic management, experts have been constantly discussing the weight of taxes in relation to the gross domestic product. Therefore, studying the current role of taxes in budget revenues and improving it is one of the urgent topics. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic.

Among other things, we prepared a literature review after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local normative documents on the topic. In order to increase the practical value of the scientific work, we studied the activities of the Ministry of Economy and Finance of our country and the DSQ under it in the tax system, in particular, the state of tax revenues in the republic and the extent to which work with them is carried out using econometric analysis methods based on statistical data.

In addition, we got acquainted with the tax system of foreign countries and their experiences in this field. Based on the studied and analyzed information, we developed scientific and practical conclusions, proposals and recommendations on the impact on the tax system and tax administration of our country.

**Key words:** *State budget, income, taxes, tax system, tax administration, tax policy, tax committee, tax burden, direct taxes, indirect taxes, tax rate, tax base, tax object.*

<b>MUNDARIJA</b>	
Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
<b>I BOB. KIRISH.....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	13
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	15
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	16
1.5. Tadqiqot ilmiy yangiligi.....	16
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	17
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>18</b>
2.1. Kirish.....	18
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	19
2.3. Mavzuga oid mahalliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	21
2.4. Xulosa.....	27
<b>III BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>28</b>
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	29
3.3. Tahlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	29
3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	31
<b>IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	
4.1. O‘zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlari shakllanishi amaliyotining tahlili.....	32
4.2. O‘zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibidagi bevosita soliqlar salmog‘ining tahlili.....	43
4.3. O‘zbekiston respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibidagi bilvosita soliqlar salmog‘ining tahlili.....	56
4.4. O‘zbekiston respublikasi tarkibida mol mulk va resurs soliqlari salmog‘i tahlili.....	64
<b>V BOB. XULOSA.....</b>	<b>69</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	69
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	71
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	76
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>77</b>

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqiy demokratik davlatni qurish belgilab olingan ekan, fuqarolik jamiyati bu bir necha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy budjetga, jamoat tuzimlariga va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi. Alohida ta'kidlash joizki, so'nggi vaqtda aholi davlat budjetining biri qismi taqsimotida faol ishtirok eta boshlagan. Ya'ni "Tashabbusli budjet" loyihasi doirasida odamlar talab qilgan yo'nalishlarga budjetdan mablag'lar ajratilmoqda. Bunda bevosita aholi ishtirokida qarorlar qabul qilish va ularni amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Mazkur amaliyot orqali aholiga o'zini qiynayotgan muammolar, shu jumladan, mahalladagi kamchiliklar uchun pul ajratishni (yo'llar, ijtmioiy obyektlar) budjetga kiritish va ularni tezlik bilan hal qilish imkoni yaratildi. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarining asosiy manbayi bo'lgan maxalliy soliqlar va yig'imlar axamiyatining oshib borishini bildiradi.

Davlatimiz budjetinini moliyaviy resurslar bilan to'ldiruvchi asosiy manba soliq bo'lgani tufayli, u jamiyatimizning oldida turgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy va boshqa ko'pgina vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi pul mablag'i bilan ta'minlanishi kerak. **Soliqlar** davlat xazinasini to'ldiruvchi asosiy elementlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun soliq'larga davlat budjetining daromadlari qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo'lgan davlat umumiy vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag'ni jamlantiruvchi dastak sifatida qarashlik lozimdir.

Soliq siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning o'z ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakating mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016-